

Ushbu naqshlarning qaysi biri mozaika texnikasida yaratilgan?

2. Mozaikani qanday materiallardan yasash mumkin? (Plitkalar, rangli qog'ozlar).

3. Siz mozaikani qayerlarda ko'rgansiz? (Binolarda, metroda, "Mozaika" o'yinida)

3. Namuna tahlili (5 daqiqa).

Darsning bu qismi tuzilishga ko'ra odatdagidek o'tkaziladi.

Darslikda o'quvchilarga yordam sifatida video ko'rsatma berilgan bo'lib, ular shu asosida ish rejasini tuzishlari va amaliy qismni bajarishlari mumkin.

4. Amaliy qism (25 daqiqa).

Birinchi navbatda o'quvchilar qizil, sariq, yashil, havo rang va qora rangli qog'ozdan yo'l-yo'l qirqib olishlari kerak. So'ngra bu tasmalar ixtiyoriy ravishda kvadrat shakliga yaqin bo'laklarga bo'linadi. So'ngra oq qog'ozga olma shaklining konturini chizib, unga darslikda ko'rsatilgandek rangli qog'oz parchalarini yopishtirish kerak.

Ish mustaqil ravishda bajariladi. Zarur bo'lgan hollarda o'qituvchi yordam ko'rsatadi.

5. Yakunlash va mulohaza (5 daqiqa).

- Darsda nimani o'rgandingiz?
- Nima yangilik bildingiz?
- Yangi bilimlarni hayotda qanday qo'llay olamiz?

Kutilayotgan natijalar:

- mozaika texnikasi haqida tushunchaga ega;
- mozaika texnikasidan foydalanib rangli qog'ozdan "Olma" applikatsiyasini yarata oladi;
- dekorativ elementlarni yaratish uchun tasavvurni qo'llay oladi;
- xavfsizlik texnikasiga rioya qilish va qog'ozdan tejamkorlik bilan foydalanish muhimligini tushunadi.

6-DARS. QUYONCHA

Dars maqsadlari:

- applikatsiya haqida tushunchani shakllantirish;
- qog'oz varag'iga applikatsiya elementlarini joylashtirish, applikatsiya qismlariga yelim surtish va ularni yopishtirish usullarini o'rgatish;
- daraxtlar va kuzgi tabiat hodisalari haqidagi tasavvurlarni kengaytirish;
- tabiatga ehtiyojkorona munosabatda bo'lishni tarbiyalash;
- tabiiy materiallarning xilma-xilligi haqida tasavvur hosil qilish;
- applikatsiyalar yaratishda tabiiy materiallardan foydalanish ko'nikmasini rivojlantirish;

- tabiiy materiallardan applikatsiyalar yaratishda tasavvur va fantaziyanidan foydalanish ko'nikmasini rivojlantirish.

Kerakli materiallar: kuzgi barglar, qaychi, yelim, karton qog'oz, darslik, tayyor namuna.

1. Tashkiliy qism (2-3 daqiqa).

O'qituvchi o'quvchilar bilan salomlashadi. Davomat va darsga tayyorgarlikni tekshiradi.

2. Dars mavzusini e'lon qilish. Dars mavzusiga kirish (2-3 daqiqa).

O'qituvchi darsning maqsadi daraxtlarning kuzgi barglaridan applikatsiya yaratish ekanligini aytadi.

O'qituvchi quyidagi savollarni beradi:

- Applikatsiya nima ekanligini kim biladi?

Applikatsiya - bu materiallarni asosga yopishtirish orqali buyum tasvirini yaratish.

Sizningcha, applikatsiya qanday materiallardan tayyorlanishi mumkin? (qog'oz, mato, tabiiy materiallar).

Tabiiy materiallar nima? (Barglar, g'o'zalar, eman yong'oqlari, kashtan mevalari, toshlar).

Tabiiy materiallarni qayerdan yig'ish mumkin? (Parkda yoki uy atrofidagi daraxtlar ostidan).

Tabiiy materiallarni yig'ishning qanday qoidalarni bilasiz? (Tabiiy materiallarni faqat yerdan terish kerak. Daraxt shoxlarini sindirish mumkin emas. Barcha o'simliklarga juda ehtiyyotkorlik bilan munosabatda bo'lish lozim).

Qanday barglarni terdingiz? (Turli shaklda, turli rangda, turli daraxtlardan).

3. Namuna tahlili (5 daqiqa).

Darsning bu qismi tuzilishga ko'ra odatdagidek o'tkaziladi.

Darslikda o'quvchilarga yordam sifatida video ko'rsatma berilgan bo'lib, ular shu asosida ish rejasini tuzishlari va amaliy qismni bajarishlari mumkin.

4. Amaliy qism (25 daqiqa).

Birinchi navbatda o'quvchilar oq rangli karton qog'oz tayyorlab, mavjud tabiiy materialdan quyoncha shaklini qanday qilib yasash mumkinligini tasavvur qilishlari kerak. Keyin tabiiy materialni oq qog'ozga shunday yopishtirish kerakki, quyoncha shaklini hosil qilsin.

Ish mustaqil ravishda bajariladi. Zarur bo'lgan hollarda o'qituvchi yordam ko'rsatadi.

5. Yakunlash va refleksiya (5 daqqaq).

- Darsda nimani o'rgandingiz?
- Nima yangilik bildingiz?
- Yangi bilimlarni hayotda qanday qo'llay olamiz?

Kutilayotgan natijalar:

- o'quvchilar applikatsiya haqida tasavvurga ega;
- o'quvchilar tabiiy materialning xilma-xilligi haqida tasavvurga ega;
- o'quvchilar tabiiy materialdan (daraxt barglaridan) applikatsiya yarata oladilar;
- o'quvchilar asar yaratishda fantaziya va tasavvur qila oladilar;
- o'quvchilar tabiatga ehtiyyotkorona munosabatda bo'lismuhimligini tushunadilar.

7-DARS. VAZA

Dars maqsadlari:

- applikatsiya tushunchasini mustahkamlash;
- qog'oz varag'iga applikatsiya elementlarini joylashtirish, applikatsiya qismlariga yelim surtish va ularni yopishtirish ko'nikmasini mustahkamlash;
- daraxtlar va kuzgi tabiat hodisalari haqidagi tasavvurlarni kengaytirish;
- applikatsiyalar tayyorlashda tabiiy materiallardan foydalanish ko'nikmasini rivojlantirish;
- qog'ozdan shakllarni qirqib olish va yopishtirish mahoratini oshirish;
- tabiiy materiallardan applikatsiyalar yaratishda tasavvur va fantaziyanı qo'llash qobiliyatini rivojlantirish;
- tabiatga ehtiyyotkorona munosabatda bo'lishning mohiyati va ahamiyatini chuqurroq anglashni shakllantirish.

Kerakli materiallar: kuzgi barglar, qaychi, yelim, karton qog'oz, darslik, tayyor namuna.

1. Tashkiliy qism (2-3 daqqaq).

O'qituvchi o'quvchilar bilan salomlashadi. Davomat va darsga tayyorgarlikni tekshiradi.

2. Dars mavzusini e'lon qilish. Dars mavzusiga kirish (2-3 daqqaq).

O'qituvchi darsning maqsadi daraxtlarning kuzgi barglaridan applikatsiya yaratish ekanligini aytadi.